

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Strategik menejment		
Fan kodi: STRM2406	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 6	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Muxamedova Shoxista		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 180	Email: muxamedovashaxistaaa@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari):		
Prerekvizitlar: Talabada Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti sohasiga nisbatan qiziqish bo'lishi, matematika fanlari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi lozim.		Tanlov turi: majburiy fan
Fanning qisqacha bayoni: "Strategik menejment" fani majburiy fan blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan oliy ta'lim, kredit ta'lim tizimi, modulli o'qitish texnologiyalari, shu bilan birga sohaning tarixi va hozirgi kundagi holati va istiqbollari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.		

Fanning maqsadi: Talabalarni bozor raqobati sharoitida korxonani boshqarish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash usullarini o'rganish bo'yicha yo'nalish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllanishini ta'minlashdir.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

➤ talabalarga strategik menejment qonunlari va tamoyillarini qo'llay bilish; strategiyalarning mazmun-moxiyati va turlarini aniqlash xamda samarali foydalanish usullarini belgilab olish va ulardan foydalana olishdan iboratdir;

➤ talabalarda strategik menejmentning shakllanishi va tarixi; strategik menejmentning rivojlanishi va uning ilmiy maktablarini; strategik menejmentda boshqaruv madaniyatini; strategik siyosatning mazmuni va moxiyatini; strategik menejment qonunlari va tamoyillari haqida *bilish va ulardan foydalana olish*;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor – o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar, masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy masala va misollar yechish uslubi va mustaqil yechish uchun masalalar keltiriladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, mustaqil ishlar tayyorlanadi.

No	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	"Strategik menejment" fanining predmeti va boshqaruv jarayoni.	3	6	14
2	Strategiya yaratishning vazifalari.	3	6	14
3	Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatning tahlili.	3	6	14
4	Kompaniya ahvolidning tahlili.	3	6	14
5	Strategiya va raqobatchilik ustunligi.	3	6	14
6	Marketing strategiyasini mavjud vaziyatga moslashtirish.	3	6	14
7	Diversiyalashning korporativ strategiyalari.	3	6	14
8	Diversiyalangan kompaniyalarning strategik tahlili.	3	6	10
Jami		24	48	108

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. –T..TDIU, 2013 y. 230 b.
2. Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. –T..TDIU, 2012 y. 144 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Yo'ldoshev N.Q., Xodjamuratova G.Yu. Strategik menejment-2. O'quv qo'llanma. – T..TDIU, 2012 y. 196 b.
2. Маленков Ю.А. Стратегический менеджмент. Учебник. М.. Проспект, 2009. 224 с.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
2. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar milliy bazasi
3. www.mehnat.uz – (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
4. www.Standart.uz- (O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi)

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

No	Kun	Vaqt	Xona
1.	Chorshanba	11.00-13.00	306